

ONA TILI FANINI O'QITISH JARAYONIDA MULTIMEDIA VA ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

*Ro'zimurodova Sitora Maqsiddin qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
sitoraruzimurodova050@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron resurslarning ona tili o'qitish metodikasidagi o'rni va ahamiyati tadqiq etiladi. Interaktiv o'quv platformalar, elektron darsliklar va ona tili bo'yicha elektron manbalar tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nutq rivojiga ko'rsatadigan ijobjiy ta'siri, audio-video materiallarning didaktik xususiyatlari va elektron o'quv kontentlarning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida multimedia resurslardan samarali foydalanishning pedagogik-psixologik prinsiplari ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar. Elektron resurslar, multimedia texnologiyalari, interaktiv o'quv platformalari, audio-video materiallar, pedagogik-psixologik prinsiplari.

ANADIL ÖĞRETİMİ SÜRECİNDE MULTİMEDYA VE ELEKTRONİK KAYNAKLARIN KULLANIM OLANA KLARI

*Ruzimurodova Sitora Maqsiddin kizi,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü yüksek lisans öğrencisi*

Anotasyon. Bu makalede, elektronik kaynakların ana dili öğretim metodolojisindeki yeri ve önemi incelenmektedir. Etkileşimli eğitim platformları, elektronik ders kitapları ve ana diliyle ilgili elektronik kaynaklar analiz edilmektedir. Modern pedagogik teknolojilerin dil gelişimine olumlu etkisi, sesli ve görsel materyallerin didaktik özellikleri ve elektronik eğitim içeriklerinin kendine has nitelikleri ele alınmaktadır. Araştırma sonucunda, multimedya kaynaklarının verimli kullanımına yönelik pedagogik ve psikolojik prensipler geliştirilmiştir.

Anahtar kelimeler: Elektronik kaynaklar, multimedya teknolojileri, etkileşimli eğitim platformları, sesli ve görsel materyaller, pedagogik-psikolojik prensipler.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ И ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА

*Рузимуродова Ситора Максиддин кизи,
магистрантка Узбекско-Финский педагогический институт*

Аннотация. В данной статье исследуется роль и значение электронных ресурсов в методике преподавания родного языка. Анализируются интерактивные учебные платформы, электронные учебники и электронные источники по родному языку. Раскрывается положительное влияние современных педагогических технологий на развитие речи, дидактические особенности аудио-видео материалов и специфические черты электронного учебного контента. В результате исследования разрабатываются педагогико-психологические принципы эффективного использования мультимедийных ресурсов.

Ключевые слова. Электронные ресурсы, мультимедийные технологии, интерактивные учебные платформы, аудио-видео материалы, педагогико-психологические принципы..

OPPORTUNITIES FOR USING MULTIMEDIA AND ELECTRONIC RESOURCES IN THE PROCESS OF TEACHING NATIVE LANGUAGE

Ruzimurodova Sitora Maqsiddin qizi,
master's student of the Uzbekistan-Finland pedagogical institute

Abstract. This article examines the role and importance of electronic resources in native language teaching methodology. Interactive learning platforms, electronic textbooks, and electronic resources for native language are analyzed. The positive impact of modern pedagogical technologies on speech development, didactic features of audio-video materials, and specific characteristics of electronic educational content are revealed. As a result of the research, pedagogical and psychological principles of effective use of multimedia resources are developed.

Keywords. Electronic resources, multimedia technologies, interactive learning platforms, audio-video materials, pedagogical and psychological principles.

Zamonaviy ta'lismi jarayoni innovatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda multimedia va elektron resurslardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ona tili o'qitish jarayonida bunday vositalardan samarali foydalanish nafaqat darslarni qiziqarli va interfaol shaklda tashkil etishga, balki o'quvchilarning mustaqil ta'lism olish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lismi tizimida elektron darsliklar, interfaol testlar, audiovizual materiallar va raqamlı platformalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar ona tilini o'rgatishda nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy mashg'ulotlarni boyitish va ta'lism jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur mavzu yuzasidan ko'plab olimlarimiz tadqiqot ishlari olib bormoqda. Shu jumladan, S.Muhamedova, M.Abdullayeva, Sh.Yuldasheva, Y.Eshmatovalarning 2018-yilda "O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanmasi nashr etildi. Ushbu qo'llanmada tilshunos olimlarimiz ona tili dasrlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyali jihatiga e'tabor qaratar ekan: "Ta'limga axborot texnologiyasi – bu "o'quvchi – kompyuter" o'rtaqidagi muloqotdir, o'qituvchi esa – uni boshqaruvchi. Zamonaviy axborotlarga boy materiallar, vositalar bilan darsni boshqarisho'qituvchi mehnatini samarali qiladi" –deb ta'kidlab o'tadi [1.6]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ona tili o'qitish jarayonida multimedia va elektron resurslardan foydalanish sohasida so'nggi yillarda bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lism jarayoniga integratsiyasi va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, quyida ayrim tadqiqot namunalaridan keltitib o'tamiz. 2022-yilda O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti Jumamuratova Sevara Saparbaevnaning "O'zbek tili ta'limida elektron lingvodidaktikaning tatbiq etilishi" nomli maqolasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiya-larinig o'zbek tilini o'qitishda tutgan o'rni, innovatsion til ta'limi sharoitida lingvodidaktik yondashuvlar, kompyuter texnologiyalari yordamida til o'rgatish usullari, multimedia darsliklari, elektron lug'atlar, test dasturlari va masofaviy ta'lism imkoniyatlari muhokama qilingan. Ushbu tadqiqotda o'qituvchilar tomonidan kompyuter va multimedia proektorlaridan foydalanish orqali darslarni samarali o'tkazish usullari haqida so'z yuritilgan. Xuddi shuning kabi yana bir ilmiy tadqiqot bilan tanishib chiqadigan bo'lsak, mazkur maqola 2024-yilda "Ta'lism tizimida innovatsion va raqamlı texnologiyalarni qo'llash masalalari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjumandan o'rın olgan L.K.Bagbekova, Abdusattorova Niginalarning "Ta'lism jarayonida multimediali o'qitish vositalaridan foydalanish asoslari" nomli maqolasi bo'lib, unda multimedia texnologiyalarini qo'llashning prinsiplari va ahamiyati quyidagicha keltirilgan:

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish usullari:

- umumiy yoki individual foydalanish;
- professionallar yoki oddiy iste'molchi uchun;
- interaktiv va interaktiv bo'lmagan foydalanish uchun;
- ma'lumotdan mahalliy yoki masofadan foydalanish.

Multimediali o'qitish texnologiyalari o'quv jarayonini boyitadi, o'quv ma'lumotlarini idrok etish jarayonida o'quvchining aksariyat hissiy komponentlarini jalg qilgan holda o'rganishni yanada samarali qiladi [2.47] Bu usullar o'quv jarayonini interfaol va qiziqarli qilish bilan birga, ta'lif samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, o'qituvchilar ushbu texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil etishlari muhim sanaladi.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy ta'lif jarayonida multimedia va elektron resurslardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ona tili kabi fanlarni o'qitishda ushbu texnologiyalar interfaol va innovatsion metodlarni qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Multimedia va elektron resurslarning ahamiyatini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

O'quvchilarning faolligini oshiradi

- Matn, ovoz, video va animatsiyalar bilan boyitilgan darslar an'anaviy usullarga nisbatan ko'proq diqqatni jalg qiladi.
- Interfaol ta'lif texnologiyalari orqali o'quvchilar dars jarayonida bevosita ishtirok etadilar.

Til o'rganish samaradorligini oshiradi.

- Ona tili grammatikasini tushuntirishda vizual va audio materiallardan foydalanish tushunishni osonlashtiradi.
- Eshitish, ko'rish va amaliy mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish orqali mustahkam bilim shakllanadi.

O'qitish jarayonini shaxsiylashtirish.

- Har bir o'quvchi o'zining individual tezligida bilim olishi mumkin.
- Elektron resurslar yordamida uyda mustaqil ta'lif olish imkoniyati yaratiladi.

Didaktik materiallarni boyitish.

- Elektron lug'atlar, multimedia darsliklar, onlayn test va platformalar orqali darslarni yanada boyitish mumkin.
- Virtual laboratoriylar va interfaol taqdimotlar orqali real hayotiy misollar bilan mustahkamlash.

Masofaviy ta'lif imkoniyatlarini kengaytiradi.

- Onlayn kurslar, vebinlarlar va elektron platformalar yordamida ta'lifni istalgan joyda va vaqtida davom ettirish mumkin.
- Maxsus mobil ilovalar va dasturlar orqali istalgan vaqtida mashq qilish imkoniyati yaratiladi.

Baholash va natijalarni monitoring qilish osonlashadi.

- Elektron testlar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali o'quvchilarning natijalari tez va aniq baholanadi.
- O'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatib borish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Shu o'rinda ustozimiz Umirova Svetlana Ma'murjonovnaning 2019-yilda nashr etilgan "O'zbek leksikografiyasi mavzusini o'qitishda interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish" nomli uslubiy ko'rsatmasida aynan elektron resusrlardan hamda multimedia vositalaridan foydalanishning imkoniyatlari haqida quyidagicha fikr keltirib o'tadi: „Kompaktli elektron resurs, o'zida an'anaviy jadvallar, rasmlar to'plami, nashr uchun matnli materiallar, multimedia projektorlari jamlanmasi, izlash tizimlarni mujassamlashtiradi. Elektron nashrlar an'anaviy (poligrafik) materiallardan farqlanadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari: videolavha-lardan foydalanish, ovozli jo'r bo'lish, animatsiyalarni kerakli joylarda to'xtatish, tahlil etish, izohlash va lavhani qulay izlash; intellektual jarayonlarni bir necha bor takrorlanishi, ularning bajarilish natijalarini nazorat qilish; o'qitishning interaktiv shakllaridan foydalanish, talabaning o'qituvchi bilan muloqot elementlarini modellashtirish, savolga noto'g'ri javob berilgan vaqtida turli munosabat bildirish; talaba bilim darajasini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirish, xatolarni bir necha o'lchovlarda tizimlashtirish va boshqa qator afzalliklarga ega. Agar texnologik imkoniyatlar foydalanish

metodikasiga muvofiq amalga oshirilsa, ham o‘qituvchi, ham talaba uchun fanni o‘qitish jarayonini jozibali bo‘lishini ta’minlaydi, o‘qituvchi mehnatini yengillashtiradi“[3.30]

Shuni qo‘sishimcha qilish lozimki, elektron resurslarni topishda internet saytlari muhim rol o‘ynaydi, chunki internet saytlarida tezkor va qulay kirish imkonи mayjud bo‘lib, foydalanuvchilar istalgan vaqtida ma’lumot topishi mumkin. Bunday saytlarda axborot ma’lumotlari doimiy ravishda yangilanib boradi va turli xil formatlardagi matn, video, audio, interaktiv materillar bilan tanishib borish mumkin. Yana bir tilshunos olimamiz Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori M.Abdullayevan “Ona tili va adabiyot ta’limida zamonaviy texnologiyalarining o‘rn” nomli maqolasida pedagog xodimlarning barcha yangiliklardan xabardor bo‘lishi hamda zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda ta’lim jarayoniga moslashishi uchun elektron resurslarning internet saytlarini quyidagicha keltirib o‘tadi:

<http://ziyonet.uz> (<http://ziyonet.uz/>)—O‘zbekiston milliy ta’limiy portali;
<http://natlib.uz> (<http://natlib.uz/>)—Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti;
<http://ziyouz.uz> (<http://ziyouz.uz/>)— O‘zbek va jahon adabiyoti sayti;
<http://ziyo.uz.com> (<http://ziyo.uz.com/>)—Elektron kutubxona;
[http://kitob.uz/-](http://kitob.uz/) Respublika bolalar kutubxonasi;
<http://www.kamolot.uz> (<http://www.kamolot.uz/>)—Kamolot yoshlar ijtimoiy sayti;
<http://www.infolib.uz> (<http://www.infolib.uz/>)— Respublika axborot kutubxona markazi;
<http://referatlar.uz> (<http://referatlar.uz/>)—Referatlar, testlar, kitoblar va media ta’lim sayti;
<http://book.uz> (<http://book.uz/>)— Elektron adabiyotlar kutubxonasi;
<http://translate.google.co.uz> (<http://translate.google.co.uz/>)— Google –tarjimon sayti;
<http://arxiv.uz> (<http://arxiv.uz/>)— Referatlar arxivii;
<http://txt.uz> (<http://txt.uz/>)— Elektron kutubxona;
<http://kursy.uz> (<http://kursy.uz/>) —O‘quv markazlari va kurslari katalogi;
<http://www.uzedu.uz> (<http://www.uzedu.uz/>)— Xalq ta’limi vazirligining rasmiy sayti;
<http://www.edunet.uz> (<http://www.edunet.uz/>) -metodist;
<http://www.mtrk.uz> (<http://www.mtrk.uz/>)— milliy teleradiokompaniya veb sayti [4, 530 b.].

Ona tili o‘qitishda multimedia va elektron resurslardan foydalanish – bu zamonaviy ta’lim tizimining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish va raqamli savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi pedagogik jarayonning sifat va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhamedova S.X., Abdullayeva M.D., Yuldasheva Sh.Sh., Eshmatova Y.B. „O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari“—Toshkent. “Tafakkur-bo‘stoni” nashriyoti 2018. 260 bet.
2. Bagbekova L.K., Abdusattorova Nigina Bahrom qizi. Ta’lim jarayonida multimediali o‘qitish vositalaridan foydalanish asoslari // “Ta’lim tizimida innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanı. 2024- yil 18-aprel soni, 894 bet.
3. Umirova S.M. O‘zbek leksikografiysi mavzusini o‘qitishda interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish.—Samarqand .2019, 66 bet.
4. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. *JournalNX*, 514-516.
5. Муродовна, Р. М. Использование водных объектов при проектировании ландшафтных объектов. *JournalNX*, 125-128.